



## QOBILIYATNI O'RGANISH TEST TOPSHIRIQLARINI TANLASH

*Muallif:TOSHKENT AMALIY FANLAR UNIVERSITETI*

*"Pedagogika va psixalogiya" fakulteti 3-bosqich talabasi*

*Valijonova Kamola Shavkat qizi*

*Ilmiy rahbar:Akbaraliyeva Asila Tojiddinovna*

*Elektronmanzil:kamolavalijonova7@gmail.com*

*Anotatsiya:Qobiliyatni o'rganish uchun test topshiriqlari turli sohalarda foydalanilishi mumkin.Ular odatda bugungi kunda o'quvchilarning,talabalar yoki ishchilarning qobilyatlari va bilimlarini baholashda qo'llaniladi.Ushbu maqola bugungi kundagi talaba va yoshlarning qobiliyatlarini yuzaga chiqarish va rivojlantirishga qaratilgan.*

### ПОДБОР ЗАДАЧ ДЛЯ ПРОВЕРКИ СПОСОБНОСТЕЙ

*Автор: ТАШКЕНТСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ПРИКЛАДНЫХ НАУК,*

*Факультет "Педагогика и психология" студентка 3 курса*

*Валижонова Камола Шавкатовна*

*Научный руководитель:Акбаралиева Асила Тожиддиновна*

*Адрес электронной почты:kamolavalijonova7@gmail.com*

*Аннотация:Тестовые задания на способность к обучению можно использовать в различных областях. Сегодня они обычно используются для оценки навыков и знаний студентов, или работников.*



**Kirish.** Qobiliyat-insonning individual salohiyati, imkoniyatlari. Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi. Qobiliyat shaxsning psixalogik va fizialogik tuzilishining xususiyati sanaladi.

**Asosiy qism.** Qobiliyat konikma, malakadan farq qiladi. Qobiliyat insonga berilgan in'om sifatida qaraladi. Aksaiyat ilmiy manbalarda mohirlik bilan qobiliyat aynanlashtiriladi. Qobiliyat inson tomonidan ko'nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi. Har qanday qobiliyat turi shaxsga tegishli murakkab psixalogik tushunchadan tashkil topgan bo'lib, u faoliyat talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o'z ichiga oladi. Shuning uchun qobiliyat deganda birorta hususiyatning o'zini emas balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlar sintezini tushunmoq lozim. Barcha qobiliyat uchun tayanch xususiyat-kuzatuvchanlikda, ya'ni insonning fahmlash, obektdan u yoki bu alomatlarni ko'ra bilish, ajrata olish ko'nikmasidir. Qobiliyatning yetakchi xususiyatlaridan biri narsa va hodisalar mohiyatini ijodiy tasavur qilishdir. U shaxsning shakillanishi va rivojlanishi natijasi bo'lishi bilan birga, tabiiy manbagaga ham ega. Bu tabiiy manba ko'pincha zehn tushunchasi bilan yuritiladi. Zehn muayyan bir faoliyatga uoki ko'plab narsalarga ortiqcha qiziquvchanlikda, moyillikda, intilishda namoyon bo'ladi.

Qobiliyat umumiy va maxsus turkumlarga ajratiladi. Umumiy qobiliyat deganda yuksak aqliy imkoniyat va taraqqiyot tushuniladi. Qobiliyat tabiiy ravishda shakillanishi va muayyan reja asosida rivojlantirilishi mumkin. Qobiliyatning yuqori darajasi iste'dod va daholikda namoyon bo'ladi. Qobiliyatlar aslida tug'ma bo'lsada uning rivojlanishi ijyimoiy muhitga ham bog'liq bo'ladi.

Qobiliyat – bu muayyan bir turdag'i faoliyatni muvoffaqiyatli amalga oshirish uchun shart bo'lgan insoniy xususiyatlar. Qobiliyat faoliyat jarayonida (xususan tarbiyaviy) moyillikda rivojlanadi. qobiliyat shaxsning bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini



bilan chegaralanmaydi.Ular muayyan faoliyat usullari va usullarni ozlashtirish tezligi,chuqurligi va kuchida namoyon bo‘ladi va ularni egallah imkoniyatini belgilaydigan ichki ruhiy regulyatorlardir. V.D.Shadrikovning fikricha,qobiliyatlar – bu individual psixik funktsiyalarni amalga oshiradigan,individual ifoda o‘lchoviga ega bo‘lgan va faoliyatni rivojlantirish va amalga oshirishning muvaffaqiyati va sifat jihatidan o‘ziga xosligida namayon bo‘ladigan funktsional tizimlarning xususiyatlari.Qobiliyat moyillik va resurslar bilan birgalikda inson psixikasiningbir sohasiga,psixik hodisalariga kiradi,ular faoliyatning barcha turlarini,umuman hayotni,shu jumladan hayotiylikni ta’minlashga qaratilgan.

1.Intellektual qobiliyatlar axborotni idrok etish,qayta ishslash va muammolarni hal qilish qobiliyat bilan bog‘liq.Bularga mantiqiy fikrlash,diqqat,xotira kiradi.

2.Ijodiy qibiliyatlar – yangi va o‘ziga xos narsalarni yaratish qobiliyati,masalan badiiy ijodkorlik yoki ixtirochilik.

3.Jismoniy qobiliyat degandajismoniy chidamlilik,kuch va harakatlarni muvofiqlashtirish tushuniladi.Masalan sport yoki raqsda.

4.Ijtimoiy qibiliyatlar – odamlarga jamiyatda samarali munosabatda bo‘lish,munosabatlarni o‘rnatish va jamoada ishslashga yordam beradigan qibiliyatlar.

### **Qobiliyatlarning miqdori va tavsifi**

Psixalologiyada qibiliyatlar individual psixalogik xususiyatlar sifatida tavsiflanadi va buning asosida tafovutlanadigan xislatlar fazilatlar yotadi.Shuning uchun har bir shaxsda bir xil natija bir xil sifat kutish mumkin emas,chunki insonlar o‘z qibiliyatları bo‘yicha bir-birlaridan muayyan darajada farq qiladilar,binobarin ular o‘rtasidagi farqlar sifat va miqdor jihatidan bo‘lishi mumkin.



## Qobiliyatning tabiiy asoslari

Odatda qobiliyatlar insonga shaxsning barcha individual psixalogik xususiyatlar kabi tabiat tomonidan tug‘ma ravishda tayyor holda berilmaydi.Balki hayot davomida va faoliyat jarayonida shakillanadi.Ilmiy psixalogiya qobiliyatlarning noma’lum tabiiy omillar tomonidan azaliy belgilanishi to‘g‘risidagi tasavvurlarga qarshi zarba beradi.

**F.A.Galling** fikricha,odamning hamma qobiliyatlari “aql” va “qobiliyat” sifatlari miya yarim sharlarida o‘zining maxsus qat’iy markazlariga ega, ya’ni bu sifatlarning taraqqiyot darajasi miya tegishli qismlarning miqdoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir.

1675-yilda **F.Galtonning** “Talantning irsiyatga bog‘liqligi qonunlari va oqibatlari”degan kitobi nashr etildi.Bunda muallif bir necha yuzlab mashhur kishilarning qarindoshlik aloqalarini o‘rganib,qobiliyat ota-onadan irsiyat yo‘li orqali o‘tadi degan xulosaga kelgan.Biroq Galtonning xulosalari ilmiy jihatdan asoslanmagan edi.

## Qobiliyat borasidagi psixologik nazariyalar

G‘arbiy Yevropalik olimlar psixologiyadagi irsiyat nazariyasiga qarshi chiqdilar.Masalan,shveysariyalik psixolog V.Boven qalbaki doktirina deb tarbiyaviy tadbirdan voz kechish jinoyat bo‘lur edi,deb ta’kidlaydi.

Ingiliz bioximigi **S.Gouz** kishi qobiliyatning rivojlanishi uchun to‘siqlar biologiyaga qaraganda ijtimoiy sharoitda ko‘proqdir,deb uqtiradi.

Ingiliz psixologi,**D.Kidjin** ham aynan shunday xulosaga kelib,tarbiyaning kishi intellektual rivojlanishiga hal qiluvchi ta’sir haqida fikr yuritiladi.Ikkinchi konsepsianing vakillari qobiliyatni butunlay hayot va tarbiyaning ijtimoiy sharoiti belgilaydi deb uqtiradilar

Mamlakatimiz psixologi **M.Davletshin** texnikaviy qobiliyat ustida tadqiqot ishlari olib borgan yetakchi mutaxassis hisoblanadi.Muallif texnikaviy qobiliyat deganda



shaxsning individual psixik xususiyatlaridan tuzilgan shunday o‘ziga hos birikmalarni tushunadiki,u shaxsning texnikaviy faoliyatiga yaroqlilik darajasini va u bilan muvoffaqiyatli ravishda shug‘llana olishini aniqlaydi.

M.G.Davletshin ham an’anaviy yo‘lda borib texnikaviy qobiliyatlarni ikkita o‘sha nomdagi tipga ajratadi hamda yetakchi tayanch xususiyatarini o‘zgarishsiz qoldiradi.Lekin boshqalardan farqli o‘laroq,bunda yetakchi xususiyatlar rivojlangan texnikaviy fikrlash va fazoviy tessavurlardan iboratdir

Keyingi yillar ichida o‘zbekiston psixologiyasida ham qobiliyat va iste’dod masalalari bo‘yicha bir qancha psixologlar bir qancha ish olib bormoqdalar.Bu sohada B.R.Qodirov,B.S.Sodiqov,E.G‘.G‘oziyev,V.A.Tokareva,Z.Nishonovalarning tadqiqot ishlari ma’lum bo‘lib,qobiliyat,iste’dod tushunchalariga o‘z ta’riflarini bergenlar

### Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati

**1.N.S.Safayev,N.A.Mirashirova,N.G.Odilova “Umumiy psixalogiya nazariyasi va amliyoti”**

**2.F.I.Xaydarov N.I.Xalilova “Umumiy psixologiya”**